

**Jamg'arma omonatning asosiy shartlari to'g'risidagi
AXBOROT VARAQASI***

| | |
|--|---|
| Tijorat bankining nomi rasmiy veb-sayti telefon raqami | «Asia Alliance Bank» ATB https://aab.uz/uz/ (+998 71) 231-60-00 |
|--|---|

1-bo'lim. Omonatning asosiy shartlari

| | |
|---|--------------------------------------|
| 1. Omonat nomi | “Konstruktor USD” |
| 2. Omonatning valyutasi | AQSH dollari |
| 3. Omonat bo'yicha yillik foiz stavkasi (agar omonat bo'yicha yillik foiz stavkasi differentsiallashtirilgan yoki omonatni rasmiylashtirish usuliga bog'liq bo'lsa? Har biri alohida ko'rsatiladi) | 1% dan 4% gacha |
| 4. Omonat bo'yicha hisoblangan foizlarni kapitalizatsiyasi mavjudligi (hisoblangan foizni omonat asosiy mablag'iga qo'shib, qayta foiz hisoblash) | omonatchining tanloviga ko'ra |
| 5. Omonatning muddati | 1 oydan 24 oygacha |
| 6. Omonatga qo'yiladigan mablag'ning eng kam miqdori (agar mavjud bo'lsa) | 500 (besh yuz) AQSH dollari |
| 7. Omonatga qo'yiladigan mablag'ning eng katta miqdori (agar mavjud bo'lsa) | chegaralanmagan |
| 8. Omonat bo'yicha foizlarni to'lash davriyligi | har oyda va omonat muddati tugaganda |
| 9. Omonatni rasmiylashtirish usuli (onlayn yoki bankka tashrif buyurish orqali) | onlayn |
| 10. Qo'shimcha mablag' kiritish imkoniyati | omonatchining tanloviga ko'ra |
| 11. Avtouzaytirish (omonat muddati tugaganda omonat muddatini bank tomonidan bir tomonlama uzaytirish) | mavjud emas |
| 12. Boshqa shartlar | |

2-bo'lim. Boshqa muxim shartlar

| | |
|--|---|
| 1. Omonatga qo'yilgan pul mablag'larini omonat muddati tugagunga qadar qisman yechib olish imkoniyatining mavjudligi | omonatchining tanloviga ko'ra, omonatdagi minimal goldiq 500 (besh yuz) AQSH dollari miqdorida saqlanib qolgan holda ruxsat etiladi |
| 2. Omonat shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish tartibi | Omonat muddatidan avval yopilganda foizlar quyidagi miqdorda pul mablag'lari omonatda saqlangan kunlari uchun to'lanadi: 1 oygacha to'lanmaydi, 1 oydan 6 oygacha - yillik 1% hisobidan, 6 oydan 12 oygacha - yillik 1.25% hisobidan, 12 oydan 18 oygacha - yillik 1.5% hisobidan, 18 oydan 24 oygacha - yillik 2% hisobidan. Omonat muddatidan oldin yechib olinganligi sababli avval to'langan foizlar summasi omonat summasidan ushlab qolinadi. |

**OMONAT QO'YISHGA ROZI BO'LISHDAN OLDIN DIQQAT BILAN O'RGANIB
CHIQUING!**

Siz omonatning shartlari, daromadlar va omonat bo'yicha hisob-kitoblar tartibi to'g'risida, shuningdek huquqlaringiz va majburiyatlarining, Sizga tushunarsiz bo'lgan boshqa masalalar yuzasidan bankdan to'liq va batafsil ma'lumot olishga haqlisiz.

Agar Sizda shikoyatlar mavjud bo'lsa, u holda Siz murojaatingizni (+998 71) 231-60-00 raqamli telefonga yoki bankning info@aab.uz elektron manziliga jonatishingiz mumkin.

AXBOROT VARAQASINING TO'G'RILIGI VA HAQIQIYLIGI TASDIQLANADI.

* Mazkur varaq omonat shartnomasi yoki omonat uchun buyurtmanoma o'rnini bosmaydi, aksincha, turli banklarning omonat shartlarini taqqoslashga va kerakli tanlovni amalga oshirishga yordam beradi.

«KONSTRUKTOR USD» jamg’arma omonat shartlari

Omonatchi bank omonatiga pul mablag'larini joylashtirish shartlarini mustaqil ravishda belgilaydi.

Omonat bo'yicha foiz stavkasi omonatchi tomonidan tanlangan shartlarga (omonat muddati, omonatni to'ldirish imkoniyati, oylik kapitalizatsiyasi) ko'ra yillik 1%dan 4%gacha belgilanadi.

| Omonat muddati, kunlarda | Kapitalizatsiya bilan, yillik % stavkasi | | Kapitalizatsiyasiz, yillik % stavkasi | | Omonat muddatidan avval yopilganda mablag'lar omonatda saqlanlan kunlari uchun, yillik % stavkasi |
|-----------------------------|--|--|--|--|---|
| | qo'shimcha mablag' kiritish imkoniyati bilan | qo'shimcha mablag' kiritish imkoniyatisiz | qo'shimcha mablag' kiritish imkoniyati bilan | qo'shimcha mablag' kiritish imkoniyatisiz | |
| 1 oy | 1,00 | 1,50 | 1,50 | 2,00 | 0,00 |
| 1 oydan 6 oygacha | 1,50 | 1,75 | 2,00 | 2,25 | 1,00 |
| 6 oydan 12 oygacha | 2,25 | 2,50 | 2,75 | 3,00 | 1,25 |
| 12 oydan 18 oygacha | 2,75 | 3,00 | 3,25 | 3,50 | 1,50 |
| 18 oydan 24 oygacha | 3,25 | 3,50 | 3,75 | 4,00 | 2,00 |